



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 304-guruh talabasi Bobomurodova
Mahfuzaning "HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI
" fanidan "O'zbek tilida sifatlarning
ma'noviyguruhleri" mavzusida yozgan**

Kurs ishi



Termiz-2014

Reja:

I. Kirish. Sifat soʻz turkumi haqida maʼlumot.

II. Asosiy qism:

1. Sifatning maʼnoviy turlari.

2. Holat bildiruvchi sifat soʻzlar

3. Shakl – koʻrinishni bildiruvchi sifatlar.

4. Hajm-oʻlchov, masofa bildiruvchi sifatlar

5. Rang-tus bildiruvchi sifatlar

6. Hayvon tuslarini ifodalovchi sifat soʻzlar

III. Xulosa.

Kirish

Predmetning belgisini bildirib, **qanday? qanaqa? qaysi?** so'roqlaridan biriga javob bo'lgan so'zlar **sifat** deyiladi. Sifat harakatning belgisini ham bildirishi mumkin: yaxshi gapirdi, qattiq ta'sirlandi kabi. Harakat belgisini ba'zi sifatlargina bildiradi. Lekin sifatlarning asosiy xususiyati **predmet belgisini** bildirishdir.

Sifatlarning morfologik xususiyatlari: 1) belgining darajasini ko'rsatadi: sho'x-sho'xroq, eng sho'x. 2) otlashadi: Kattalarni hurmat qiling. 3) ravish o'rnida keladi: Sattor chiroyli yozadi. 4) sifat bog'lanib kelgan ot turli so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni olib o'zgarishi mumkin, lekin sifat o'zgarmaydi: ko'k qalam, ko'k qalamni, ko'k qalamda kabi.

Sifatlarning sintaktik xususiyatlari: 1) asosan aniqlovchi va kesim vazifasini bajaradi: Yoqimli shamol esa boshladi. Tabiat go'zal. Sifat harakat belgisini bildirganda, hol vazifasida bo'ladi: Azimov sovuq, xira ko'kimtir osmonga g'amgin, xayolchan qaradi. 2) sifat aniqlovchi bo'lib kelganda, aniqlab kelayotgan so'zi bilan moslashmaydi.

Asliy va nisbiy sifatlار.

Narsalarning belgisini bevosita, to'g'ridan-to'g'ri ifodalay oladigan va belgini darajalab ko'rsata oladigan (ya'ni -roq qo'shimchasini qabul qila oladigan) sifatlار **asliy sifatlار** deb ataladi: kichik, yomon, aqlli, qora, oriq va b.

Narsalarning belgisini bevosita emas, balki o'rin yoki paytga nisbatan ifodalaydigan va ko'pincha daraja ko'rsata olmaydigan sifatlار **nisbiy sifatlار** deb ataladi. Bunday sifatlار yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan bo'ladi: sharsimon, yozgi, uydagi, oilaviy, ilmiy, toshkentlik va b.

Sifat darajalari.

Predmetlardagi bir xil belgining ortiq kamligi jihatidan farqlanishi **sifat darajasi** deyiladi. Sifatlarning quyidagi darajalari bor: oddiy daraja, orttirma daraja, qiyosiy daraja, ozaytirma daraja.

1. **Oddiy** darajadagi sifatlarda belgi boshqa predmetlardagi xuddi shunday belgiga qiyoslanmaydi. Bu daraja belgining odatdagi me'yorda ekanligini ko'rsatadi va maxsus ko'rsatkichga (qo'shimchaga) ega emas: keng ko'cha, yashil barg, yaxshi odam.

2. **Orttirma** daraja predmetdagi bir belgining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga nisbatan eng ko'p ekanligini ifodalaydi. Ortirma daraja quyidagi usullar yordamida hosil qilinadi:

- **morfologik usul:** a) so'zning birinchi bo'g'ini ajratilib, unga keyingi bo'g'indagi birinchi undosh qo'shiladi-da, yopiq bo'g'in hosil qilinadi va undan keyin to'liq shakli takrorlanadi: dum-dumaloq, pak-pakana; b) so'zning oldingi ikki tovushi ajratilib unga p, m tovushlaridan biri qo'shiladi va undan keyin so'zning o'zi takrorlanadi: yap-yangi, ko'm-ko'k; v) so'zning birinchi bo'g'inidan keyin -ppa shakli qo'shiladi: soppa-sog', to'ppa-to'g'ri.
- **leksik usul:** a) maxsus kuchaytiruvchi so'zlar orqali ifodalanadi: eng kichik, hammadan chiroyli, zap g'alati, beqiyos chiroyli, naqadar ulug'vor, xo'p bemaza, cheksiz quvonchli; b) so'zlarni takrorlash vositasida: zo'r-zo'r (polvonlar), uzundan-uzun (kechalar), ne-ne (olimlar); v) turli so'z birikmalari, iboralar yordamida: haddan ziyod chiroyli, misli ko'rilmagan (qahromonlik), qo'ling o'rgilsin (jonon).
- **leksik semantik usul.** Bunda belgi bildiruvchi so'zlar oldidan yoki ular o'rniga boshqa turkumdagi so'zlar qo'llanadi: zahar (garmdori), olov (bola);
- **fonetik usul:** a) unlilar cho'zib aytiladi: tooza, chuquur; b) undoshlar ikkilanadi: tekkis, yummsheq.

3. **Qiyosiy** daraja predmetdagi bir belgining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgidan ortiq ekanligini ifodalaydi. Qiyosiy daraja oddiy darajadagi sifatga -roq qo'shimchasini qo'shish yoki sifatdan oldin bir-biridan, undan ham, yanada so'zlarini keltirish bilan yasaladi: olma daraxti shaftoli daraxtidan balandroq. Bir-biridan go'zal, bunda ham battar, yanada kuchli.

4. **Ozaytirma** daraja belgi darajasining normal darajaga yetmaganligini, normaldan pastligini ifodalaydi: 1) qo'shimchalar yordamida: oqish, qizg'ish, qoramtir, -roq qo'shimchasi ham ozaytirma darajani ifodalashda qatnashadi (bunda bir narsadagi belgi boshqa narsadagi shunday belgiga qiyoslanmaydi): eskiroq (kiyim); 2) sifatdan oldin yarim, nim, och, xiyol, chizi, sal, aytarli, uncha, u qadar so'zlarini keltirish bilan: yarim ochiq (eshik), uncha katta emas.

Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar.

Ozaytirma sifatlar o'zakdan anglashilgan rangning, belgining ozligini, kamligini bildiradi va quyidagicha yasaladi:

- -ish, -imtir (-mtir). Bulardan -ish, -imtir undosh tovush bilan bitgan oq, ko'k kabi so'zlarga, -mtir esa faqat qora sifatiga qo'shiladi: oqish, ko'kish, qoramtir.
- rangni bildiruvchi sifatdan oldin och, nim so'zlarini keltirish bilan. Nim bilan hosil qilingan sifatlar qo'shib yoziladi: och sariq nimpushti.
- -kina (-gina, -qina). Bu qo'shimchalar o'zakdan anglashilgan belgining kuchsizligini, ozligini bildiradi. K, g bilan bitgan so'zlarga -kina q, g' bilan bitgan so'zlarga -qina, boshqa hollarda -gina qo'shimchasi qo'shiladi: kichkinagina, yumshoqqina, tuzukkina.

Kuchaytirma sifatlar o'zakdan anglashilgan rangning, belgining ko'pligini, ortiqqligini bildiradi va quyidagicha hosil qilinadi:

- sifatlarining bosh qismi p va m tovushlaridan biri bilan takrorlanadi: qizil – qip-qizil, ko'k – ko'm-ko'k. Bunday sifatlar chiziqcha bilan yoziladi (oppoq sifati qo'shib yoziladi).

- sifatlarning birinchi bo‘g‘ini keyingi bo‘g‘inining undosh tovush bilan birga takrorlanadi. Bu sifatlar ham chiziqli bilan yoziladi: butun – but-butun, dumaloq – dum-dumaloq.
- sifatdan oldin to‘q, jiqqa, tim, g‘irt kabi so‘zlarni keltirish bilan: bunday sifatlar ajratib yoziladi: jiqqa ho‘l, tim qora.

Ko‘pgina darsliklarda ozaytirma sifatlar qiyosiy darajadagi sifatlar, kuchaytirma sifatlar esa orttirma darajadagi sifatlar guruhiga kiradi.

Sifatlarning yasalishi.

Sifatlar quyidagicha yasaladi: 1. Sifat yasovchi qo‘shimchalar bilan. 2. So‘zlarni qo‘shish bilan. 3. So‘zlarni takrorlash bilan.

1. Sifat yasovchi qo‘shimchalar quyidagilardir:

- otdan sifat yasovchi qo‘shimchalar: -li: rasmiy kitob, kuchli shamol; -dor: aybdor, vafodor; ba-: badavlat, baquvvat; ser-: serhosil olma; -mard: kasalmand, davlatmand.

Yuqoridagi qo‘shimchalar asosdan anglashilgan **belgiga egalikni** bildiradi. -siz: tuzsiz ovqat; be-: **beg‘ubor, bexabar**.

Bu qo‘shimchalar esa (no- qo‘shimchasi bilan birgalikda: noaniq, notinch) asosdan anglashilgan **belgiga ega emaslikni** ifodalaydi. -lik: toshkentlik (bola); -iy, -viy: tarbiyaviy soat, devoriy gazeta; -ga, -ki, -qi: bahorgi ishlar, qishki kiyim (paytga xos belgini bildiradi); -aki, -oqi: jizzaki, jirttaki, pistoqi; -yi: havoyi; -chan: ishchan bola; -simon: odamsimon maymun (o‘xshashlik ma’nosini bildiradi); -kor, -gar: isyonkor, zulmkor, javobgar, ig‘vogar; -i: qishloqi, qozoqi; -cha: farg‘onacha, erkakcha, arabcha (o‘yin); -namo: avliyonomo, darveshnamo; -parvar: xalqparvar, adolatparvar; -on: charog‘on, za‘faron; -aki: dahanaki, og‘zaki; bad-: badbaxt, badnafs; -shumul: olamshumul, jahonshumul; -don: gapdon, bilimdon; -kash: dilkash, hazilkash; -bop: palovbop, qishbop; xush-: xufe‘l, xushhavo; -in: erkin, otashin; -vor: devonavor, afsonavor; -parast: mansabparast, maishatparast; bar-: barhayot, barvaqt; -chil:

xalqchil, izchil; -lik (-liq): ko‘ylaklik (chit), bolalik (chog‘lar); -i: jannati (kampir); -loq: baqaloq, qo‘shaloq; -kor: devkor (ish), fusunkor (husn); -kash: zahmatkash (odam), noskash (kampir); -chi: gapchi (odam), vahimachi (ayol); -von: zo‘ravon (odam); -qa: loyqa (suv); -omuz: hazilomuz (gap), zaharomuz (hazil); -xo‘r: g‘amxo‘r (odam), go‘shxo‘r (hayvon); -soz: soatsoz (usta); -dek (-day): muzdek (suv), jo‘jabirday (jon);

- fe‘ldan sifat yasovchi qo‘shimchalar: -choq,-chak,-chiq: maqtanchoq, kuyunchak, qizg‘anchiq; -gir,-g‘ir,-kir,-qir,-qur: sezgir, topqir, o‘tkir, olg‘ir, uchqur; -ma: qaynatma sho‘rva, burama ko‘ylak; -k(-uk,-ik,-ak): chirik, teshik, tuzuk, g‘alvirak; -q(-uq, -iq,-a/oq): iliq, siniq, buzuq, qoloq; -oq: qochoq, qo‘rqoq, baqiroq; -qi: sayroqi qush; -qoq,-g‘oq: tirishqoq, uyushqoq, toyg‘oq; -ag‘on: bilag‘on, chopag‘on; -mon: bilarmon, qirarmon; -kun,-qin,-g‘in: tushkun, ozg‘in, jo‘shqin; -g‘un,-qun: turg‘un, tutqun; -(a)rli: yetarli, zerikarli; -ch: tinch, jirkanch; -g‘ich: yulg‘ich (odam); -ong‘ich: tepong‘ich, suzong‘ich; -ovuch: hurkovuch, iskovuch; -mas: o‘tmas (pichoq), indamas (odam); -(i)ndi: asrandi (bola); -a: ko‘tara (savdo); -msiq: qarimsiq, achimsiq;
- boshqa turkumlardan sifat yasovchi qo‘shimchalar: ravishdan: -gi: kechagi, dastlabki; sifatdan: no-: noma‘lum, noto‘g‘ri; -lom: sog‘lom; taqlid so‘zlardan: -ildoq: bijildoq, likildoq.

2. So‘zlarni qo‘shish, bog‘lash va juftlash bilan quyidagi turdagi sifatlar yasaladi:

- **qo‘shma sifatlar** quyidagicha yasaladi va yoziladi:

a) ot va otdan. Bular qo‘shib yoziladi: bodomqovoq, sheryurak;

b) sifat va otdan. Bular qo‘shib yoziladi: qimmatbaho.

v) ot yoki ravishga -ar qo‘shimchali fe‘lni qo‘shish bilan yasaladi. Bular qo‘shib yoziladi: tezoqar daryo, ertapishar (o‘rik)

g) otga aro, umum, yarim, g'ayri, nim, rang so'zlarini qo'shish bilan. Bular qo'shib yoziladi: xalqaro, umumkomanda, yarimavtomat, g'ayridin, nimpushti.

Qo'shma sifatlar: a) ikki tub so'zdan tashkil topadi: sovuqqon, xomsemiz, kamgap; b) biri tub, ikkinchisi yasama so'zdan iborat bo'ladi: ishyoqmas, erksevar, tilbilmas, o'zbilarmon.

- **birikmali sifatlar** tarkibi ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'ladi va ular orasidagi munosabatlar aniq sezilib turgan bo'ladi, bunday sifatlar aralash, yo'q, ko'p, oliy, och, to'q, to'la, chala, yarim, bir, ikki kabi so'zlar ishtirokida hosil qilinadi: qum aralash (loy), tengi yo'q, ko'p tarmoqli, oliy ma'lumotli, och qizil, qorni to'q, to'q qizil, to'la huquqli, chala mulla, yarim avtomat, bir tomonlama, ikki qavatli, yuqori hosilli (dala), uzun tolali (paxta), yoshi ulug' (inson), gapga usta (odam), oqishdan kelgan (yigit).
- **juft sifatlar** quyidagicha yasaladi: 1) qarama-qarshi ma'noli so'zlardan: katta-kichik, uzun-qisqa, maza-bemaza, sezilar-sezilmas, bilinar-bilinmas, kirdi-chiqdi; 2) sinonim ko'rinishdagi so'zlardan: erka-arzanda, boy-badavlat, sog'-salomat, uzuq-yuluq, ola-chipor, soya-salqin, mo'min-qobil, xor-zor; 3) yaqin ma'noli so'zlardan: och-nahor, shaldir-shuldir, o'ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq, kuydi-pishdi.

Sifatlarning **juft shakli** asosan antonimlardan hosil bo'ladi va umumlashtirish ma'nosini bildiradi: yaxshi-yomon (gap), katta-kichik (bolalar). Juft sifatlar chiziqcha bilan yoziladi, -u, -yu yuklamalari bilan bog'lansa, chiziqcha qo'yilmaydi: yakkayu yakka farzand.

3. So'zlarni takrorlash bilan ham sifatlar yasaladi: bu usul yordamida sanoqli miqdordagi sifatlarga yasaladi: yo'l-yo'l (ko'ylak), manman (odam), shiqshiq (tugma), liplip (chiroq), chaqchaq (odam).

Sifatlarning **takroriy formasi** predmetning birdan ortiqligini, miqdoriy ko'pligini bildiradi. Bunda belgini alohida ta'kidlash, kuchaytirish ham bo'ladi. Sifat aniqlab kelgan ot ham, shu ma'noga mos holda, asosan ko'plik shaklida qo'llanadi: Turli

shahar va qishloqlardan kelganliklari turlicha kiyim va shevalaridan bilinib turgan yosh-yosh yigit-qizlar konferens zalning ich-sirtini to'ldirib yuborgan edi.

Sifatlarning otlashishi.

Otlashgan sifatlar **kim? nima?** so'roqlariga javob bo'ladi. Egalik, kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi, ko'plik qo'shimchasini oladi. Otlashgan sifatlar gap ichida ega, to'ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi bo'lib keladi: Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar, yomonga yaqin yursang yarasi yuqar (maqol). Bilimlining kuchi mingga yetar, bilimsizning kuchi birga yetar. Otlashgan sifatlar undalma ham bo'lib keladi: Yaxshilar uni eslang!

Boshqa turkumdagi so'zlarning sifat o'rnida qo'llanishi.

1) Otlar sifat o'rnida qo'llanadi: tilla (odam), kumush (qish), oltin (kuz), temir (oyoq);
2) sifatdoshlar: kelishgan (qiz), aytar (so'z), kelajak (avlod); 3) ravishlar: oqilona (maslahat), tez (odam), o'zbekcha (odat);

Sifatlarning tuzilish turlari.

- sodda sifatlar bir o'zakdan iborat bo'ladi: aqlli, yaxshi.
- qo'shma sifatlar – rahmdil, ertapishar, havo rang. Bunda sifatlar: 1) ikki tub so'zdan tashkil topib, ot+ot, ot+sifat, sifat+ot, ravish+ot ko'rinishlarida bo'ladi: kulcha yuz (bola), xom semiz (yigit), kamgap; 2) biri tub, ikkinchisi yasama so'zdan iborat bo'ladi: ishyoqmas, erksevar, tilbilmas.
- birikmali sifatlar: uzun tolali (paxta), yoshi ulug' (inson), gapga usta (odam), oqishdan kelgan (yigit).
- juft sifatlar – o'ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq.
- takroriy sifatlar – baland-baland, uzun-uzun, yo'l-yo'l (pijama).

Sifat soʻzlar oʻzlarining maʼno xususiyatlari jihatdan ularning quyidagi semantik guruhlar mavjud:

1. Xususiyat bildiruvchi: yaxshi, yomon, aqlli, sergak, soʻzamol;
2. Holat bildiruvchi: goʻzal, erkin, suluv, choʻloq, maymoq, choʻtir, soqov, kar, koʻr;
3. Rang-tus bildiruvchi: oq, qora, sariq, kul rang;
4. Shakl-koʻrinish bildiruvchi: yapaloq, tekis, yassi, dumaloq;
5. Hajm-oʻlchov-masofa bildiruvchi: keng, tor, chuqur, katta, kichik;
6. Maza-taʼm bildiruvchi: shirin, achchiq, nordon, shoʻr, achimsiq;
7. Hid bildiruvchi: xushbuy, sassiq, badbuy, muatttar, qoʻlansa;
8. Vazn-ogʻirlik bildiruvchi: ogʻir, yengil, zildek, vazmin;
9. Oʻrin va paytga munosabat bildiruvchi: yozgi, qishki, avvalgi, dastlabki, uydagi, koʻchadagi.

Quyida ularning ayrimlarini tahlil qilamiz va sifatlarning maʼno turlarining badiiy va soʻzlashuvdagi ahamiyati haqida maʼlumotga ega boʻlamiz.

Holat bildiruvchi sifat soʻzlar

Holat bildiruvchi sifat soʻzlar. Bunday soʻzlar baʼzan 10 guruhga boʻlib oʻrganilsa, bazan 6 guruhga ajratib oʻrganiladi. Biz ayrimlarini keltiramiz. **Bu soʻzlar predmet, hodisa, inson va hayvonga xos holat yoki vaziyatning belgisini ifodalaydi:**

a) tabiiy holatning belgisini bildiruvchi sifatlar. ***Ijobiy holat: suluv, barno chiroyli, yaxshi kabi. Har qayerdagi yaxshi, suluv, barno qizlarning oti bor***

Salbiy holat: ***kal, soqov kabi. oʻlmay chiqsam senday kalning baxtigatilini alahaqa choʻqib, soqovtob boʻlib qolgan edi. "Alpomish" dostoni***

Ba'zi sifatlar faqat hayvon va predmetlarning belgisi uchun ham qo'llanadi. Masalan: *Jozning bir oyog'i singan, bir qanoti mayib bo'lgan, o'q tegib, holati ketib, shu yerga yiqilgan* ("Alpomish" dostoni)

b) jismoniy va fizik holatlarni ifodalovchi sifatlar: **bardam , pir, yosh , qari , ko'hna kabi.** qancha yosh barno kanizlar o'rta olib o'tiripti. ("Ravshan" dostoni) *Ravshanxon qarasa, bir ko'sa: juda ko'hna bo'lib ketgan pir ko'sa, uch yuzdan oshgan, to'rt yuzga yanashgan juda qari ko'sa, yo yilidan adashgan, balki besh yuzga kirgan...*("Ravshan" dostoni) Misoldagi ko'hna so'zi ning ifoda ma'nosi «qadimiy, eski» sifatida anglashilsa, nutqda bog'li qurshovda so'z ma'nosi jonsiz predmetdan jonli predmetga o'tkazilgan. Shu so'z orqali ijodkor ko'saning juda ham qariligini bo'rttirib ko'rsatgan.

d) ruhiy holatni ifodalovchi sifatlar: miskin, mungliq , g'amgin mayus kabi. (Mungluq singling senga arz qip turibdi, // qalmoqlarda checham jabr ko'ribdi (Alpomish).

e)kishining hayotiy holatini ifodalovchi sifatlar: *boy , gado, yetim, bechora. Boysari boy edi, Boybo'ri esa shoy edi* (Alpomish).

Shakl – ko'rinishni bildiruvchi sifatlar

Shakl – ko'rinishni bildiruvchi sifatlar: keng go'shtdor kabi. *Oqqiz shunday qiz edi: oti Oqqiz, Zulxumorga naq qiz, o'zi to'lgan sog` qiz, o'rta bo'yli chog` qiz, o'ynagani bog` qiz, uyqichi emas sog` qiz, eri yo`q toq qiz, ko`p kalondimog` qiz, o'yinga qulayroq qiz, to`g`ri ishga bulayroq qiz, qora ko`z, bodomqovoq qiz, sinli siyoh qiz, tanasi to`sh qo`ygan keng qiz, urushqoq emas jo`n qiz, et ko`targan go`shtdor qiz, biqini tor to`shdor qiz, kachkil bet, past burun, o'rta bo'yli, qizil chiroyli, keng manglayli, qulog'i yupqa, iyagi sergo`sht, qoshi ko`proq bir-biriga tutash, ko`zi qisiqnoma qiz, boybichcha monand, og'ir ko`chgan qiz edi* ("Ravshan" dostoni). Keng, go'shtdor, tor, kachkil, past, o'rta, yupqa, sergo`sht so'zlarning «sifat belgi», «barqaror belgi», «umumiy baho», «shakl-ko'rinish» ma'nolarida birlashib, inson tasvirini, uning qiyofasini chizib berishda qo'llangan. Ular o'zaro farqlovchi ma'nolar – keng-tor «antonim belgi», keng – «me'yor ortiq», tor – «me'yor kam»,

sergo'sht, go'shtdor «sinonim belgi», «me'yor teng» kabi ifoda ma'nolarida voqelashgan.

Hajm-o'lchov, masofa bildiruvchi sifatlar

Hajm-o'lchov, masofa bildiruvchi sifatlar: uzoq ,uzun , kalta , yaqin , chuqur kabi. *Yo'lning uzog'ini bergin iloyim. Olis edi, men yaqinlab qolaman.* Yuqorida keltirilgan sifat guruhlarining deyarli hammasi ko'chgan ma'nolarda qo'llanadi. Bunda ko'proq ekspressiv-emotsionallik munosabatlari ifodalanadi.

Rang-tus bildiruvchi sifatlar

Rang-tus bildiruvchi sifatlar: predmetning belgi xususiyatlaridan birini ifodalaydi. Masalan: qizil, qirmizi, gulgun kabi.

Tabiatda ranglarning chegarasi yo'q. Lug'at boyligimizda ham rang bildiruvchi maxsus so'zlar rang, tuslarining hammasini aniq ifodalay olmaydi. Shuning uchun tilda ko'pincha bir rang bildiruvchi so'z bir necha rangni ifodalaydi va semantik qamrovi kengayadi. Ularning uslubiy imkoniyatlari, okkozional ma'nolari faqat nutq jarayonida yuzaga chiqadi. Ushbu masalaga bag'ishlangan qator ishlar ham yaratilgan. Binobarin, badiiy adabiyotda rang bildiruvchi sifatlarining ham semantik serma'nolik xususiyatini ko'ramiz.

Ko'k so'zi ning ma'nosida yashil, ko'k va ularning turli ma'no ottenkalari uyg'unlashgan holda qo'llanadi: *Ustima kiyganim mening yashil-ko'k, // g'ariblikda bo'larmikan ko'nglim to'q. Odamlar ko'kini tashlab, vaqtini xushlab, o'z ishida bo'lsin, bozorini yurgizsin, savdo-sotiqni boshlasin.* Misollardagi yashil, ko'k so'zlari rang ma'nosini saqlagan holda, qo'shimcha «motam, o'lim» ma'nosi yuklatilgan. Bu esa, ko'k, yashil so'zlarining ramziy vosita sifatida qo'llanganini ko'rsatadi. Adabiy tilda ko'k – temir kuporosi, temir sulfat, suvda oson eriydigan och yashil kristallik modda; ko'k-tiniq osmon rangidagi; moviy, zangori yashil-sariq bilan ko'k rang o'rtaligidagi, barg yoki maysa rangidagi; sabza rang (kabi ma'nolarni bildirib «belgi», «sifat belgi», «rang bildiruvchi belgi» atash ma'nosida birlashsa-da, yashil «me'yordan ortiq», «adabiy uslubga xoslangan», ko'k «me'yordan kam», «badiiy uslubga

xoslangan», ko'k «me'yordan o'rta», ifoda ma'nolarida bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari, ko'k so'zi ning quyidagi ma'nolari mavjud:

a) «osmon» ma'nosi: Davlatli xon shunday ko'kka qaradi, // Olchi-chikka bo'lib endi aylanib

b) «yetti qat osmonning bir qavati» ma'nosi: Osmonda arvohlar, ko'kda malaklar, // Bir necha mazgil-joy sizdan so'rayman ("Alpomish"dostoni). Keltirilgan misrada kuchli mifologizm mavjudday ko'rinadi. Chunki, tasavvuf ilmi va hatto, hadislarda ham dunyoning yetti olami mavjudligi va ularning har birida o'zgacha hayot borligi haqida fikr yuritiladi. Osmonimni endi bulut bosdimi, // Ko'kdan yashin keng bog'imga tushdimi.

Shuningdek, misollardan aniq ko'rinib turibdiki, ko'k so'zi ning omonimik xususiyati ham matnda yuzaga chiqadi.

Ko'k, yashil so'zlari yoki yashil-ko'k juft so'zi ning «xafagarchilik», «o'lim», «motam» ma'nosiga qizil rangi qarshi qo'yiladi va unda «yoshlik», «navqironlik» ma'nolari ifodalanadi: Bekning oti po'lat suvliq chaynadi, // qizil kiyib gulday bo'lib jaynadi .

O'zbek tilida **qizil** rangining quyidagi ma'nolari mavjud:

a) «**xursandchilik**» ma'nosi: Boshingga sanchilgan qizil gul bo'lsin, // Menday oyim jilovingga qul bo'lsin.

b) «**go'zallik**» ma'nosi: Kuymasin hech kimning kulba xonasi, // o'rtanmasin qizil gulday tanasi.

v) «**yor, oshuqa**» ma'nosi: Bog'bon bo'lmay, qizil gulni terasan, // Lolazor, bahrli yerda yurasan .

g) «**mavjudlik**», «**tiriklik**» ma'nosi: qizil yuzim g'ariblikda sarg'ayib, // o'ligim bo'lmasin mening besohib. Ochilganda qizil g'uncha so'lmasin, // Dunyoda mard kishi hech bir o'lmasin.

d) «**mutlaqo**», «**o'taketgan**», «**g'irt**» ma'nosi: *Ravshanbek shu yerda qip-qizil tentakka chiqib qoldi.*

Qizillik tushunchasini ifodalashda gulgun, qirmizi, gulgun qirmizi, alvon, ol, so'zlaridan ham foydalaniladi. Ustingga kiyganning gulgun qirmizi. *Toshga tegib*

tirnoqlari to`kilib, // Yurgan izga qo`chqil qonlar yoqilib. Oltin kosa, gulgun sharob, // Ichildi maydon ichinda (Ravshan dostoni).

**Qizil, gulgun, qirmizi, gulgun qirmizi, alvon, ol, qo`chqil** so`zlari «rang bildiruvchi belgi» ma`nosida birlashsa-da, qizil, qirmizi «me`yordan ortiq», «adabiy», ol, alvon «me`yordan past», gulgun, qo`chqil «me`yordan ortiq», «dostonlar tiliga xos» ma`nolari bilan bir-birlaridan farqlanadi.

Ba`zan alvon so`zi «rang» ma`nosini emas, balki «turli, xilma-xil» ma`nosini bildirish uchun xizmat qiladin. Masalan: Kuygan alvon-alvon so`zlar.

Qora so`zi oq so`zi ga antonim sifatida ishlatiladi. Ichi qora niyating,
// o`lsangda oq bo`lmaydi

a) «**uzoqdan ko`ringan sharpa, ko`lanka**» ma`nosi: Ko`ringan qora kim bo`ldi?

b) «**mo`ljalga olingan yoki olinadigan narsa; nishon; mo`ljal**» ma`nosi: Ul qoraga yaqin yetdi (

v) «**og`irchilik bilan bog`liq, mashaqqatli, azobli**» ma`nosi: Bunda yotganingni yo`lbars bilmasin, // Kelib, senga qora kunlar solmasin (Rustamxon dostoni.

g) «**razil, qabih, yovuz**» ma`nosi: qora ekan qilig`ing, bu qiliqni qo`ymading.

d) «**o`lim**» ma`nosi: Mushtiparim enamni, // qaro yerga joylading?! .

e) «**sho`rli, baxtsiz**» ma`nosi: Unga shikast bergan baxtim qorasi, // Uzoq edi ikkovining orasi.

f) «**farzand, jigargo`sha**» ma`nosi: Oqizma ko`zingdan qonli jolangni, // Umri uzun bo`lsin ko`zi qorangni (Ravshan dostoni).

Ushbu fakt va dalillar qora so`zi ga alohida e`tibor bilan qarab o`rganishni taqozo etadi.

Xullas, qora so`zi ning funksional imkoniyatlari beqiyos bo`lib, ijodkor o`z fikrini obrazli ifodalashda, ta`sirchanlikni oshirishda qo`llashi mumkin.

Rang bildiruvchi so`zlarning ko`chma ma`nolari kontekstual bo`lganligidan, ularning ma`no xilma-xilliklari va ma`no qirralari, ular bog`liq qurshovidagi so`zlar vositasidagina yaqqol anglashiladi. Bu esa, sinonimik qatorlar hosil qiladi, mavjud

ma`nodoshlik uyalari esa, ma`nodoshlik komponentlari soni jihatdan oshishiga sabab bo`ladi. Ma`nodoshlikdan keng foydalanish tilning poetik tasvirda boylik darajasini ko`rsatsa, badiiy asarda ijodkorning ulardan foydalana olish, mahorati darajasini ko`rsatadi.

Hayvon tuslarini ifodalovchi sifat so`zlar

o`zbek xalqi qadim-qadimlardan chorvachilik va yilqichilik bilan hug`ullanib kelganligi tufayli, ularning tilida chorvachilik, yilqichilik, ot anjomlariga oid so`z-atamalar kattagina o`rinni egallaydi. Sifatning bunday xususiyatlarini **xalq dostonlaridagi otlarda ko`rishimiz mumkin va shu asosda tahlil qilamiz.**

Hayvon tuslarini ifodalovchi sifatlarning stilistik imkoniyatlarini nazardan qochirmagan holda, ularni adabiy tilga qiyosan semantik jihatdan ikki guruhga bo`lish mumkin.

1. Ot tuslarini ifodalovchi so`zlar.

a) Faqat ot tuslarini ifodalovchi so`zlar: jiyron, saman to`riq , to`riq , saman kabilar. Masalan: **Jiyron** so`zi otlarning sarg`ish qizil yoki qizg`ish sariq tuslisini ifodalab keladi. *Masalan: Ostida jiyron oti, ko`pdir Rustam g`ayrati.*(Rustamxon dostoni)

**To`riq** so`zi qizg`ish jigar rang otlarning nomini bildiradi. Borayotir qalmoqshoxning to`r oti, // Shunday bo`lar to`riq otning odati .

Saman so`zi sariq tusli otlarga nisbatan yuritildi. «Saman sariga tush, yo olapocha to`riga tush, shapaqning zo`riga tush,» – deb qo`riqni soldi (“Alpomish” dostoni)

b) otlarning rangini ifodalovchi so`zlar: ola , tarlon kabi. Bo`z so`zi ko`kimtir oq yoki kulrang otlarga nisbatan ishlatiladi. Egarlab keltiring Tarlon bo`zimni.

v) ot rang-tuslarini ifodalovchi birikmalar: Bo`z chipor, oq to`riq, chovkar ko`k ,qora yol saman, tarlon ko`k kabi.

Tarlonko`k so`zi ola rang ustiga qoramtir, qizg`ish dog`lari bor ot tusini bildiradi.

**Bo`z alvon** so`zi , kulrang va qizg`ish aralash yoki qizg`ish dog`lari bor ot tusini bildiradi. Masalan: *Ostingda o`ynaydi bo`z alvon oting, // Dushmanni o`rtaydi shonu shavkating.*

2. Ot badanidagi farqlovchi belgilarga ko`ra nomlanishi: qashqa, oq tovon, oq tuyoq, oq chocha, chavkar // chovkar), olapocha kabi.

Olapocha so`zi oyoqlari oq-qora, oq-malla va shu kabi qorishiq tusli ot turi. Masalan: «**Saman sariga tush, yo olapocha to`riga tush, shapaqning zo`riga tush,**» – **deb qo`riqni soldi** (Alpomish dostoni).

Oq tuyoq so`zi tuyoqdan yuqori qismi oq, qolgan qismi boshqa rangda bo`lgan otlarga nisbatan qo`llanadi.

Xullas, rang-tus bildiruvchi sifat so`zlar otlarning belgisini , rangini ifodalab, boshqa hayvonlarga nisbatan qo`llanmaydi. Ya`ni boshqa otlarga nisbatan qo`llanilmaydi. Lekin ayrim hayvonlarga rang-tus sifatlari ularning nomiga qo`shib qo`llaniladi. Masalan: Bo`zbo`ri, Qo`ng`irqayiq, Oqilon, Oqtovuq, Oqqush.

Xulosa

Xullas, sifat ma'nolarining funksional imkoniyatlari beqiyos bo`lib, ijodkor o'z fikrini obrazli ifodalashda, ta'sirchanlikni oshirishda qo'llashi mumkin.

Sifatning ma'no turlari o'z va ko'chma ma'nolarda turli semalarni ifodalashini ko'rib chiqdik. Yuqoridagi fikrlarga oid bir qancha maqolalar e'lon qilingan. Masalan: H Tojimatov . "Odamga nisbatan va jonivorlarga xos(integral semali xususiyat bildiruvchi sifatlar ma'nolarining reallashuvi" (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "Tilshunoslikning dolzarb masalalari" ilmiy maqolalar to'plami (III) Toshkent-2006 yil) kabi maqolasi yuqoridagi fikrlarimizning tasdig'i bo'lishi mumkin.

Ushbu kurs ishimda sifatning ayrim ma'noli guruhlariga to'xtalib o'tdim va tahlil qildim. Xususiyat, maza-tam, hid, vazn-og'irlik, o'rin va paytga nisbatan munosabatni bildiruvchi sifatlar to'liq yoritilmadi. Sifatning bu ma'no turlari, ushbu izlanishimning davomi hisoblanadi.

Sifatning holat, rang-tus, shakl-ko'rinish, hajm-o'lchov-masofa, bildiruvchi ma'no guruhlarini tahlilda xalq ijodi ya'ni "Alpomish", "Ravshan", "Rustamxon" Dostonlaridan olingan misollar mavzuni yoritishda asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

ADABIYOTLAR

1. Sh. Shoabduraxmonov, M.Asqarova, A.Xojiev, I.Rasulov, X.Doniyorov Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism .T., «o'qituvchi» 1980.
2. U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullaev Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., «o'qituvchi» 1992.
3. M.Mirzaev, S.Usmonov, I.Rasulov “O'zbek tili” T., «O'qituvchi» 1978.
4. O'zbek tili grammatikasi. 1-tom. T., «Fan» 1975.
5. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahmedov Ona tili. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. T., «Ma'naviyat» 2005.

Internet saytlari

6. <http://google.uz>
7. <http://referat.uz>
8. <http://ziyonet.uz>
9. <http://onatili.uz>